Ma'lumki, "Doing Business" reytingi Jahon banki tomonidan 2003-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan va bu reyting mamlakatlarning biznes yuritish sharoitlarini baholashda asosiy mezonlardan biriga aylangan. Biroq, 2020–2021-yillarda reytingda katta mojaro yuzaga keldi, chunki ayrim mamlakatlarning reytingi asossiz

balandligi, shuningdek, Doing Business ma'lumotlar tizimida farqlanish holatlari aniqlandi (jumladan, Xitoy va Saudiya Arabistoni).

2021-yilda iqtisodchi Jozef E. Stiglits "Doing Business" indeksi yaratilgan vaqtdan boshlab Vashington konsensusi deb nomlanuvchi qadriyatlarni aks ettirganligini ta'kidladi. U bu reytingni bozorni tartibga solishni kamaytirish, xususiylashtirish va liberallashtirishga asoslangan rivojlanish modeli sifatida baholadi. Tanqidchilar esa "Doing Business" global "tubga intilish poygasi"ni rag'batlantirishidan ogohlantirganlar. Mamlakatlar o'z reytinglarini oshirish uchun raqobatlashib, ko'pincha sezilarli amaliy natija bermaydigan ramziy huquqiy islohotlarni amalga oshirganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada Jahon banki tomonidan joriy etilayotgan yangi Business Ready reytingida O'zbekistonning amalga oshirilayotgan islohotlarining ta'siri yoritilgan. Reytingda e'lon qilinadigan ko'rsatkichlar orqali mamlakatdagi investitsiya oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatish omillari tahlil qilingan.

Maqolada mavjud ishbilarmonlik muhiti chuqur o'rganilib, islohotlarning biznes yuritish sharoitlari va investitsion jozibadorlikka bo'lgan ijobiy ta'siri taqdim etilgan. Shu bilan birga, nazariy jihatdan mamlakatda mavjud muammolarni bartaraf etish va islohotlar jarayonini yanada samarali qilish bo'yicha tegishli takliflar shakllantirilgan.

Shu bilan birga, Jahon banki tomonidan "Doing Business" metodikasiga nisbatan ishonchsizlik tan olingan va 2021-yil 16-sentyabrda Jahon banki guruhining oliy rahbariyati "Doing Business" hisobotini tayyorlashni va ma'lumotlar to'plashni to'xtatish haqida qaror qabul qildi. Buning natijasida ishbilarmonlik va investitsiya muhitini baholashning yangi yondashuvi sifatida "Business Ready" loyihasi ishlab chiqilishi e'lon qilindi. Yangi loyiha Jahon banki guruhi mutaxassisleri, shuningdek, tashkilotga a'zo bo'lmagan malakali olimlar va amaliyotchilarning tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqildi.

Jumladan, 2021-yilda Jahon banki tomonidan o'tkazilgan "Doing Business" uslubiyatining sharhi natijalarini, shuningdek, davlat sektori, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat potensial foydalanuvchilar bilan keng qamrovli maslahatlashuvlar davomida olingan fikr-mulohazalarni qamrab olgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agar "Doing Business" loyihasi kichik va o'rta korxonalar uchun ishbilarmonlik muhitini baholashga qaratilgan bo'lsa, "B-Ready" loyihasi butun xususiy sektorni rivojlantirishni maqsad qilgan. "Doing Business" asosan kompaniyalar uchun me'yoriy yuklamani o'rganib, davlat xizmatlariga qisman e'tibor qaratgan bo'lsa, B-Ready me'yoriy-huquqiy yukni, shuningdek, tartibga solish va tegishli davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini baholashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, B-Ready reytingi me'yoriy-huquqiy bazaga rioya etishning qulayligi va korxonalar uchun bevosita ahamiyatli bo'lgan davlat xizmatlaridan foydalanish samaradorligini ham tahlil qiladi.

"B-Ready" reytingini ishlab chiqishda "Doing Business" reytingidagi mavjud kamchiliklar tahlili amalga oshirilgan (1-jadval).

1-jadval. Doing business reytingida mavjud kamchiliklar va b-ready reytingidagi yechimlar

Doing Businessda mavjud kamchilik	B-Readyda yechimi
Ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish imkonini mavjudligi hamda ularning shaffoflik darajasi pastligi	To'liq ommaviylikni ta'minlash, jumladan, ma'lumotlar, usullar va amalga oshirish jarayonining oshkoraligi
Faqat rasmiy mavjud hujjatlar inobatga olinishi, amaldagi sharoitlar inobatga olinmaganligi	Qonunchilikning amaldagi holatini o'rganishni joriy etish (de-yure va de-fakto)
"Ma'lumotlarni o'zgartirish" yuqori reyting uchun rag'bat	Har bir yo'nalish uchun baho – umumiy reyting mavjud emas
Ijtimoiy va raqamlashtirish faktorlarini hisobga olinmaganligi	Yangi mavzular: ekologik barqarorlik, raqamlashtirish, gender tengligi
Institutlarga emas, balki tartib-qoidalarga yo'naltirilganligi	Davlat xizmatlari sifati va sudlarning erkinligi baholanadi



Yangi loyiha nafaqat alohida korxonalarning biznes yuritish qobiliyatini, balki xususiy sektorni rivojlantirishning inklyuziv va barqaror jihatlarini (ijtimoiy foyda) ham baholashni nazarda tutgan.

“B-Ready” reytingi metodologiyasi

Yangi reytingda nafaqat alohida kompaniyalar manfaatlarini ilgari surish orqali, balki ishchilar, iste'molchilar, potensial yangi korxonalar va atrof-muhitni muhofaza qilishda manfaatdorlikni oshirish orqali xususiy sektorni yaxshilashga qaratildi. “B-Ready” ushbu maqsadlarga erishish uchun uchta asosiy yo'nalishga e'tibor qaratadi:

•Islahotlarni targ'ib qilish (Reform advocacy):

“B-Ready” hukumatlar, xususiy sektor, Jahon banki guruhi va boshqa rivojlanish institutlari o'rtasida siyosat masalalari bo'yicha bilim almashish va muloqot qilish imkoniyatlarini ochib, xalqaro benchmarkingni samarali tarqatish orqali siyosatni isloh qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

•Siyosat bo'yicha qo'llanma (Policy guidance):

“B-Ready” har tomonlama va dolzarb ma'lumotlar hamda axborotlar asosida siyosatdagi aniq o'zgarishlarni yo'naltiradi. U har bir iqtisodiyotning xalqaro ilg'or tajribalaridan qay darajada orqada ekanligini va qanday qilib ularga yetib olish mumkinligini ko'rsatib beradi.

•Tahlil va tadqiqotlar (Analysis and research):

“B-Ready” xususiy sektorni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlari va mexanizmlarini yoritib beruvchi tadqiqot va tahlil uchun batafsil ma'lumotlarni taqdim etadi.

Reytingda ekspertlar maslahatlari asosida ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar hamda korxonalar darajasidagi so'rovlar natijasida olingan ma'lumotlar har yili mamlakatlarning turli guruhlar uchun yangilab borilishi nazarda tutib, har bir mamlakat bo'yicha ma'lumotlarning uch yillik davr davomida barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

“B-Ready” tadqiqoti huquqiy va haqiqiy jihatlar haqida muvozanatli tasavvurga ega bo'lish uchun ekspertlar bilan maslahatlashuvlar va kompaniyalar o'rtasida so'rovlarni birlashtirib, mamlakatlar o'rtasidagi ma'lumotlarni taqqoslashda yaxshiroq paritetga erishishda xizmat qilishini nazarda tutadi.

Dastlabki bosqichda 50 ta turli toifadagi mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda, ma'lumotlarni to'plash uchun “B-Ready” da 21 ta so'rovnomalardan foydalanib, har bir mamlakat bo'yicha deyarli 1 200 ta ko'rsatkich (taxminan 2000 ta ma'lumot nuqtai nazaridan) to'plandi.

Yangi loyiha “B-Ready” tahliliy tuzilmasi bo'yicha, yuqorida qayd etganimizday 3 ta ustun va undan tashqari 10 ta mavzu (topics) hamda 3 ta oraliq mavzular (cross-cutting themes)dan iborat (1-rasm).



Raqamlashtirishni o'zlashtirish

Ekologik barqarorlik

Gender tenglik

1-rasm. Evaluating Key Factors of Business Readiness

Manba: Business Ready-2024

Ko'rib chiqiladigan barcha yo'nalishlar uch ustundan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

1. Normativ-huquqiy baza (Regulatory Framework):


Bu ustun bozorga kirish, faoliyatni yuritish va undan chiqish uchun subyektlarning rioya qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalarini, zarur bo'lgan me'yorlarning sifatini hamda oldindan ko'ra bilish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

2. Davlat xizmatlari (Public Services):

Ushbu yo'nalish tartibga solishga muvofiqlikni qo'llab-quvvatlash uchun qulayliklar va biznes faoliyatini ta'minlash uchun institutlar va infratuzilmani, masalan, ro'yxatga olish jarayoni, kadastr xizmatlari, sudlar, kommunal tarmoqlarga ulanish, raqamli xizmatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

3. Operatsion samaradorlik (Operational Efficiency):

Bu ustun firmalar bilan bog'liq qonunchilik talablariga rioya qilishning osonligini va davlat xizmatlaridan samarali foydalanishni ta'minlashni nazarda tutadi (2-rasm). [4]




2-rasm. Biznes muhitini yaxshilash uchun me'yoriy-huquqiy bazani, davlat xizmatlarini va operatsion samaradorlikni mustahkamlash

Manba: Business Ready-2024

Yuqorida keltirilgan uchta ustunda quyidagi 10 ta mavzu bo'yicha mavjud holatga baho beriladi: Biznesga kirish, joylashtirish, kommunal xizmatlar, mehnat munosabatlari, moliyaviy xizmatlar, tashqi savdo, soliqqa tortish, nizolarni hal qilish, raqobat muhiti va bankrotlik.

O'zbekistonning biznes uchun yaratilgan imkoniyatlar

O'zbekiston 2016-yilda "Doing Business" reytingida o'z o'rnini yaxshilab, 2015-yildagi 103-o'ringa nisbatan 21 pog'ona yuqorilab, 82-o'ringa ko'tarildi. 2016-yildan boshlangan keng qamrovli islohotlar natijasida 2020-yilda ushbu ko'rsatkich yana 13 pog'ona yuqorilab, 2020-yilda 2015-yilga nisbatan 34 pog'ona o'sib, 190 ta mamlakatlar orasida 69-o'rinni egalladi (3-rasm). [5]



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2015-2020-yillarda "Doing Business" reytingidagi o'rnini

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (keyingi o'rinlarda IHTT) kredit reytingidagi mamlakatlarning guruhlashuvi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tahlillarga ko'ra, makroiqtisodiy muhit 2015-2021 yillar oralig'ida IHTT reytingida bo'lgan yoki vaqtincha kirgan davlatlar o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Ayrim hollarda makroiqtisodiy muhitning o'xshashligi global omillar — koronavirus infeksiyasining tarqalishi va undan keyin yuzaga kelgan inqiroz ta'siri bilan izohlangan[6].

O'zbekistonning 2020-yilda "Doing Business" reytingida yuqorilashiga, nafaqat global iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonida ochiq siyosat olib borгани, balki biznes yuritish muhitini yaxshilashda minoritar investorlarni himoya qilishi, soliq ma'murchiligini takomillashtirishi, transchegaraviy savdoni hamda shartnomalar ijrosini soddalashtirishi kabi asosiy omillar alohida qayd etildi.

Bugungi kunda ham O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirish yo'lida keng qamrovli islohotlar davom ettirilmoqda. Ammo biznesni yuritish jarayonida ba'zi muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Buning natijasida, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ular yordamida biznes jarayonlarini tezlashtirish va soddalashtirishga biznes subyektlari manfaatlarini himoya qilgan holda, ularga teng raqobat muhitini ta'minlash choralari ko'rilmogda. Ularda yechimini topgan masalalarga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarni keltirish mumkin.



Bugunga kelib, tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish moduli orqali 30 daqiqagacha bo'lgan muddatda amalga oshirilmoqda. Agar ushbu jarayon bankda hisob raqam ochishgacha bo'lgan jarayon bilan qamrab olinadigan bo'lsa, umumiy 1-2 kungacha vaqt sarfi talab etilmoqda.

Biznes vakillarini qiynab kelgan asosiy masalalardan biri bo'lgan joylashtirish masalasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3149-son qarori bilan tashkil etilgan¹ 2017-yil 1-sentyabrdan "E-AUKSION" elektron savdo platformasining ishga tushirilishi bilan o'z yechimini topgan. Ushbu platforma orqali ko'plab sotiladigan mulklar qatorida davlat obyektlari va ularning ulushlari, ijara obyektlari, ko'chmas-mulk hamda yer uchastkalari ham mavjud [7].

2024-yil 1-yanvaridan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etildi. Ushbu reyting butunlay avtomatlashtirilgan platforma bo'lib, unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari yuqori reytinglarni qayd etgan taqdirda, ularga nisbatan nafaqat nazorat choralarini ko'rish ehtimoli kamaytirilishi, balki ma'lum qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rib borilishi ham nazarda tutilgan [8].

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibiga muvofiq, faoliyatni baholash ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy ball baholash vaqtida amalda bo'lgan ballar yig'indisiga ko'ra, "AAA" toifaga mansub tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazilmasligi hamda bir kun muddatda qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'lum hududlardagi davlat mulklarini bo'lib to'lash shartida xarid qilgan tadbirkorlik subyekti tomonidan 15 foiz miqdoridagi dastlabki to'lov bir yo'la amalga oshirilganida, qolgan summaga asosiy stavkasi miqdorida foizlarni hisoblamaslik hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddatini 5 yilgacha uzaytirish kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash "AA" va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

"A" va undan yuqori toifaga mansub tadbirkorlik subyektlariga yana bir moliyaviy va ma'muriy qo'llab-quvvatlash chorasini sifatida, mahsulotlar importini amalga oshirishda qo'shilgan qiymat solig'ining manfiy summasi bilan hisob-qitob qilish hamda soliq to'lovlaridan hosil bo'lgan ortiqcha to'lov summalarini uch kun muddatda qaytarib olish belgilangan.

Ushbu yengillik tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikda belgilangan majburiyatlar o'z vaqtida va to'liq bajarilishini, faoliyatning samaradorligini, ijtimoiy yo'naltirilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligini ta'minlash orqali yig'ilgan umumiy ballar 86 balldan yuqori bo'lganda taqdim etiladi [9].

An'anaviy tarzda besh yildan buyon mamlakat Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkazilib kelayotgan ochiq muloqotlarida, tadbirkorlar tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar va ularning faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan omillarga tinglangan holda tizimli yechimlar bo'yicha takliflarning kiritilishi biznes muhitini yaxshilashda juda katta turtki bo'lib xizmat qilmoqda. So'ngi ochiq muloqot biznes muhitini yaxshilashda samarali instrument ekanligi yana bir bor o'z isbotini topmoqda. Jumladan, biznes vakillari, soliq to'lovchilarning majburiyatlari soliq organlari zimmasiga o'tkazilishi belgilandi. Bunda, yuridik shaxslarning yer va mol-mulk, jismoniy shaxslarning daromad hamda ijtimoiy soliqlari bo'yicha soliq hisoboti taqdim etish majburiyati, soliq hisobotiga 5 kun davomida o'zgarish yoki qo'shimcha kiritish imkoniyati bilan, 2026-yildan boshlab soliq organlari tomonidan amalga oshirilishi biznes vakillariga ma'muriy choralar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi [10].

O'zbekiston Respublikasining O'RQ 599-son Qonuni² bilan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, unda birinchi bor soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi nazarda tutildi. Oshkoralik printsipiga ko'ra, soliq qonunchiligi rasman e'lon qilinishi shart etib belgilandi. Bundan ko'rinib turibdiki, "B-Ready" reytingida boshqa yo'nalishlar kabi, biznes vakillariga nisbatan murakkab bo'lgan soliqni tartibga solish ochiqqligi va o'zgarishlarning shaffofligi yo'nalishining huquqiy asoslari mamlakat qonunchiligida bevosita tartibga solingan.

Amaliyotda so'ngi yillarda nafaqat soliq qonunchiligi, balki biznes yuritish qonunchiligidagi barcha o'zgarish va yangiliklar rasmiy e'lon qilinishi bilan birga, ularni ommaviy axborot vositalari orqali yoritishdan tashqari, biznes vakillari bilan uchrashuv va seminarlarni tashkil etgan holda normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va mohiyati tadbirkorlik subyektlariga yetkazilib, amaliyotga tadbqiq qilish yuzasidan tushuntirishlar ham berib borilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonning «Business Ready» reytingidagi ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirishga qaratilgan nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. 2025-yilda e'lon qilinadigan reytingda O'zbekistonning biznes yuritishga tayyorgarligi va investitsion muhitga ta'siri baholanadi. Yangilangan metodika investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlarni yaratishga yordam beradi, shu bilan birga raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali biznes muhiti va jozibadorlikni oshiradi.

O'zbekiston 2020-yilda «Doing Business» reytingida 69-o'ringa ko'tarilib, so'nggi islohotlarning samarali natijasini ko'rsatdi. 2024-yilda yalpi ichki mahsulot \$121 milliardga yetdi va aholi jon boshiga yalpi ichki

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3149-son <https://lex.uz/docs/-3286042>

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2019 yildagi O'RQ-599-son <https://lex.uz/docs/-4674011>

mahsulot 41 million so'mga oshdi. O'zbekiston – 2030 strategiyasida 250 milliard dollar investitsiya jalb qilish maqsadi belgilangan. 2024-yil investitsiya hajmi 40 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa xorijiy investorlar uchun «Business Ready» reytingidagi muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Reytingda yuqori baholar O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ahamiyatli ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Takliflar sifatida sud jarayonlarini samaradorligini oshirish, biznes vakillarini himoya qilishda yangi texnologiyalarni joriy etish, raqamli xizmatlar orqali shaffoflikni ta'minlash va Jahon Savdo Tashkiloti talablarini bajarish zarurati ta'kidlangan. Bu o'zgarishlar O'zbekistonni xalqaro miqyosda investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investorlar va mamlakatlar uchun bayroqdor reytinglardan biri bo'lib hisoblangan “Doing Business” reytingida O'zbekistonning eng yuqori natijasi 190 ta mamlakat orasida 2020-yilda qayd etilib, 69-o'rinni egalladi. Yangi joriy etilgan “Business Ready” reytingi esa 2025-yilda ilk bor O'zbekiston bo'yicha ko'rsatkichlarni e'lon qiladi. Ushbu reytingda o'sish, 2021-yildan keyingi davrda mamlakatimizda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularga qulay sharoit ta'minlagan holda aholi turmush darajasini oshirish uchun maqbul yo'l etib belgilandi.

Ushbu islohotlar samarali natijasiga misol tariqasida shuni ko'rish mumkinki, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi \$121 milliard AQSh dollaridan oshib, ya'ni aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 41 million so'mdan ko'proq bo'lib, 2020-yilga nisbatan 1,7 barobarga o'sdi [10].

O'zbekiston – 2030 strategiyasida mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishni ta'minlash orqali 250 milliard AQSh dollarlik investitsiyani o'zlashtirish maqsad qilib olingan bo'lib, birgina 2024-yildagi investitsiya hajmi 40 milliard dollarni tashkil etdi.

O'zbekistonda kelgusi davrda investitsiyalar, jumladan, xorijiy investorlar uchun flagman reyting bo'lib hisoblanishi kutilayotgan “Business Ready” reytingida mamlakat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida quyidagi takliflar kiritilmoqda: sud jarayonlari, biznes vakillarini himoya qilish va Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish. Hozirgi vaqtda sud jarayonlari an'anaviy shaklda davom etmoqda, bu esa biznes jarayonlaridagi nizolarni hal etishda ko'p vaqt sarfini talab qilmoqda. Ushbu jarayonlarning shaffofligini va qulayligini ta'minlash maqsadida innovatsion tartiblarni keng joriy etish lozim. Biznes vakillarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda joriy etilgan Biznes-ombudsman institutida raqamli davlat xizmatlarini ko'rsatish, ochiq va birja savdolarida xolislik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida integratsiya darajasini oshirib, vujudga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarlik va adolatsizliklarni inson omilisiz aniqlash tizimi orqali onlayn nazorat mexanizmini joriy etish kerak. “Business Ready” reytingidagi qo'yiladigan baholarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olib, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'ziligiga kirishda qo'yilgan minimal talablarni to'liq ijro etish orqali joriy etilgan normalarning amaliy ijrosini ta'minlash zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 24.01.2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
2. B-Ready: The World Bank's New Business Environment Indicator <https://www.exportplanning.com/en/magazine/article/2024/11/20/b-ready-the-world-banks-new-business-environment-indicator/>
3. Doing Business 2020: Reforms Propel Uzbekistan to Place Among World's Top 20 Business Climate Improvers <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers/>
4. World Bank Group Business Ready 2024 <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/08942fab-9080-4f37-b7be-ef61c9f9aed9/content>
5. Пулатов Д. Х., Угай Д. С. Выявление взаимосвязи между страновым риском и макроэкономическими параметрами с целью улучшения позиции Узбекистана в кредитном рейтинге ОЭСР //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 151-155 <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0013/M-22.pdf>
6. E-AUKSION» электрон савдо платформаси <https://e-auksion.uz/info?page=about-auction>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2024-yildagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-39-son qarori <https://lex.uz/docs/6773342>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi 55-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risida”gi Nizom <https://lex.uz/docs/6785751>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-138-son Farmonining 1-ilovasi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida ishlab chiqiladigan qonunchilik hujjatlari loyihalari” ruyxati <https://lex.uz/docs/7696559>
10. Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik) <https://siat.stat.uz/reports-filed/660/table-data>
11. Pulatov D. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в Узбекистане //Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB. – 2009. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-50.
12. Пулатов Д. Методологические аспекты совершенствования казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан //Каталог авторефератов. – 2017. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-65.



13. Pulatov D., Quliyev U., Mamanov A. O 'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 1. – №. 3.
14. Пулатов Д. Х., Угай Д. С. ВЫЯВЛЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ СТРАНОВЫМ РИСКОМ И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИМИ ПАРАМЕТРАМИ С ЦЕЛЬЮ УЛУЧШЕНИЯ ПОЗИЦИИ УЗБЕКИСТАНА В КРЕДИТНОМ РЕЙТИНГЕ ОЭСР //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 151-155.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100